

## UNUTILGAN DAVLAT – AL-ANDALUS

**Mamurov Diyorbek Saydullo o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix fakulteti III kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Al-Andalus bu Ispaniyada asrlar davomida mavjud bo‘lgan musulmon davlatining nomi. Bu davlatga arablar asos solgan. Al-Andalus yevropaning eng ilgor davlati bo‘lgan. Bu yerda ilm fan rivoj topgan. Musulmon dunyosida yaratilgan asarlar manashu yer orqali Yevropaga tarqalgan. Al-Andalus davlati o‘zining qudratini cho‘qqisiga Abdurrahmon Nosir davrida erishgan. Uning davrida ilmiy uyg‘onish boshlangan edi. Yevropa hukmdorlari uning harbiy mahoratiga havas ila boqishar edi. Lekin Abdurrahmon Nosir vafotidan so‘ng al-Andalus davlatida tushkunlik davri boshlanadi. Bundan esa xristian dunyosi foydalanib qoladi. Mahalliy xristian hukmdorlari birlashib al-Andalus davlatiga qarshi kurash boshlaydilar. Bu kurash tarixda rekonkista<sup>1</sup> siyosati nomi bilan kiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Al-Andalus, Ilberiya yarimoroli, Vestgot qirolligi, arablar fathi, Toriq ibn Said, Muso ibn Nusayr, Ummaviylar sulolasi, Sapta port shari, Vestgot qirolli Rodrik, Abdurrahmon Nosir, rekonkista, Kordova, Alfonso VI, Toledo shahri.*

Al-Andalu bu arablar tomonidan Ilberiya yarimoroliga berilgan nom. Bu nomdan avval bu yerlar Vandalusiya deb nomlangan. Chunki arablar kelgunga qadar bu yerda asosan german qabilari istiqomat qilar edi. Arablar shimoliy afrikani istilo qilgan vaqtlarda shimoliy Afrikada germanlarning vandal qabilalari istiqomat qilar edi. Shuning uchun arablar qayerda german qabilari yashasa o‘sha yerni Vandalusiya deb

---

<sup>1</sup> Rekonkista- musulmonlar egallagan hududlarni xristianlashtirish va ulardan tortib olishga qaratilgan harbiy yurishlar nomi.

atashar edi. Lekin Ilberiya yarimorolida germanlarning vandal qabilalari emas, balki vestgotlar yashar edi. G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan so'ng Ilberiya yarim orolida hokimyatni germanlarning vestgot qabilasi egallab oladi. Ularning davridagi boshqaruv Rim hukmdorlarning boshqaruvidan farq qilmagan edi. Bu yerga musulmonlar yangi davr yangi madaniyatni olib kelishadi. Al-Andalus fath etilgunga qadar arablar Arabiston yarimoroli, Kichik Osiyo, Eron, O'rta Osiyo, Misr va shimoliy Afrikada katta katta hududlarni istilo qilib mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga erishadilar. Shimoliy afrikadagi barbar qabilalari islom dinini qabul qilganidan so'ng arablar nihoyatda katta qudratga ega bo'lishgan<sup>1</sup>. Chunki barbarlar son jihatdan ko'p va jangovar qabila bolishgan edi. Ular islom dinini qabul qilganlaridan so'ng shimoliy Afrikadagi barcha yurish va istilolarda qatnashishadi. Barbar qabilalarining yetakchisi va sarkardasi bo'lgan Toriq ibn Said bu yurishlarda katta shuhrat qozongan edi. Arablar shimoliy Afrikaning eng g'arib qismi hozirgi Marakosh hududlarini egallagandan so'ng e'tiborlarini Yevropa mamalakatlariga qaratadilar. Chunki Yevropa va Afrikani ajratib turuvchi tor bo'g'oz manashu yerda joylashgan edi. Shimoliy Afrikadagi atlas tog'laridan turib kuzatilsa Ilberiya yarimoroli sohillarini ko'rish mumkin. Bu davrda Ilberiya yarim orolidagi Vestgot qirolliklariga qarshi mahalliy aholining noroziligi oshib bormoqda edi. Vestgot qirolliklari chuqur ichki ziddiyatlar qurshovida qolgan edi. Bu vaziyatdan arablar foydalanib qolishga harakat qilishgan. Ularning asosiy maqsadi qanday qilib bo'lmasin mahalliy aholini islom diniga o'tkazish edi. Shunday qilib arablar Ilberiya yarimoroli fathiga tayyorgarlik ko'ra boshlashadi. Ummaviylar sulolasi tomonidan shimoliy afrika noibi etib Muso ibn Nusayr tayinlanadi. Muso ibn Nusayr asli kelib chiqishi arablarning quraysh qabilasidan edi. U shimoliy afrika fathida ishtirok etyadi. Uning davrida barbar qabilalari to'liq islom dinini qabul qilishgan. U Andalusiyani istilo qilishni reja qila boshlaydi. 5Lekin bu rejani amalga oshirishda bir muammo bor edi. Andalusga olib otuvchi bogozning eng tor yeri 11-13 kmga teng edi. Arab qo'shinlarida esa kemalar mavjud emas edi. Shuningdek Andalusga olib boruvchi port shahar ya'ni Saptah shahri

---

<sup>1</sup> [Wikipedia//musulmon madaniyati](https://wikipedia//musulmon madaniyati)

g'ayridinlar qo'lida edi. Saptar port shahrining hokimi Julian degan ispan bo'lgan. Muso ibn Nusayr Andalusiya fathini Toriq ibn Saidga ishonib topshiradi. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Chunki Toriq ibn Said kelib chiqishi barbarlardan edi. Qo'shinning ham katta qismini barbarlar tashkil etar edi. Bu tadbir shubxasiz faqatgina arablarning foydasiga ishlagan. Barbarlar ozlarining orasidan yetishib chiqqan sarkardani o'zlari uchun yetakchi etib tayinlangnidan juda ham hursand bo'lishgan. Urushdan avval xalifalik qo'shinlari Ilberiya yarimorolini o'rganish uchun o'z ayg'oqchilarini turli tomonlarga jonata boshlaydilar. Bu ayg'oqchilar to'plagan malumotlar shuni ko'rsatganki Saptar port shaharining hokimi Julian bilan Ispaniya hukmdori Rodrik bilan aloqalari yaxshi emas edi. Bundan esa musulmonlar foydalanib qolishga intilganlar. Ular Saptar hokimiga maktub yo'llab hamkorlikka undashadi. Julian Ispaniya hukmdori Rodrikka qarshi kurashish uchun musulmonlardan foydalanishga harakat qiladi. Ikki o'rtada esa sulh tuzilgan. Sulhga ko'ra Julian Saptar shari hokimligida qoladi va musulmonlarni Andalusiya hududlariga o'tish uchun kemalar bilan taminlaydigan bo'ladi. Shunday qilib musulmonlar uchun Andalusiya uchun yo'l ochilgan edi. Bu yurishga Toriq ibn Said boshchilik qiladi. Musulmon qo'shinlari milodiy 711-yilda Gibraltar bo'g'ozidan kechib o'ta boshlaydi. Dastlab Toriq ibn Said 7ming qo'shin bilan Gibraltardan kechib o'tadi. Ispaniya hukmdori Rodrik musulmon qo'shinlarini Andalus sarhadlariga kirib kelganini eshitib 100minglik qo'shin bilan ularga qarshi kurashishga o'tlanadi. Rodrikni 100minglik qo'shin bilan kelayotganini eshitgan Toriq ibn Said Muso ibn Nusayrga elchi jo'natadi. Muso ibn Nusayr Toriq ibn Saidga yordam uchun yana 5ming kishilik piyoda qo'shinni jonatgan edi. Toriq ibn Said o'z qoshinlarini Gibraltar bo'g'ozidan sal shimolroqda joylashgan Birbod vodiysiga joylashtiradi. Musulmonlar va Rodrik o'rtasidagi jang 8kun davom etgan. Bu jangda musulmonlar o'zlarini sabr bardoshini va matonatini namoyish etadi. Uzoq davom etgan jangdan so'ng musulmonlar qo'shini qirol Rodrik qoshinlarini tormor etadi. Bu jangda qirol Rodrikning o'zi ham halok bo'ladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Internet manbasi// you tobe// andalus history

Musulmonlar safidan esa 3ming kishi qurbon berilgan. Manashu Birbod vodiysidagi jangdan so'ng Andalus tarixida yangi davr boshlangan<sup>1</sup>. Musulmon madaniyati va musulmon hukmdorligi o'rnatiladi. Bu yerlarda Ummaviylar xalifaligining noibligi tuziladi. Bu yerlar noibi etib Toriq ibn Said tayinlanadi. U o'zining harbiy yurishlarini shimolga qarata davom ettiradi. U bu yo'nalishlarda Marda, Aspiliya, Tulaytulo, va boshqa shaharlarni zabt etishadi. Tohir ibn Said uzoq davom etgan janglardan so'ng Barselona grafligini ham istilo qilishadi<sup>2</sup>. Musulmonlar o'zining hokimyatlarini mustahkamlash maqsadida mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga harakat qilishgan edi. Lekin bu harakatga mahalliy aholi juda ham qattiq qarshiligiga duch kelishadi. Lekin musulmonlar o'zlarining qattiqqo'l siyosatlari tufayli mahalliy aholini islom diniga o'tkazishga erishishadi. Bu yerda asta sekinlik bilan tinch hayot tiklanadi. Bu yerlar markaziy halifalik shaharlaridan farqli ravishda yahudiy va xristian jamoalari mavjud edi.

VIII asrga kelib xalifalikning markaziy qismida halifalik uchun kurash kuchaygan edi. Buning natijasida ummaviylar sulolasiga mansub turli siyosiy arboblardan bir ummaviylar sulolasiga mansub bo'lgan xalifa Hishamning nabirasi Abdurrahmon I edi. Abdurrahmon I Andalusiyada yangi amirlikka asos soladi. Abdurrahmon I 756-yilda Andalusiyada Qurdoba amirligiga asos soladi. Qurdoba amirligi 912-yildan boshlab xalifalik maqomini oladi. Qurdoba amirligida 7ta amir hukmdorlik qiladi. Ularning shajarasi quyidagidey bo'lgan;

1. Abdurrahmon 756-788-yillar
2. Xisham I 788-796-yillar
3. Al-Xakam 796-822-yillar
4. Abdurrahmon II 822-852-yillar
5. Muhammad I 852-886-yillar

---

<sup>1</sup> Islom hazorasi. Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. Movarounnahr nashriyoti Toshkent. 2004-yil.

<sup>2</sup> Wikipedia// andalus tarixi

6. Al-Mundir 886-888-yillar

7. Abdulloh 888-912-yillar<sup>1</sup>

Milodiy 912-yildan boshlab Qurdoba amirligi halifalik maqomini oladi. Ushbu xalifalikning asoschisi Abdurrahmon Nosir hisoblanadi. Abdurrahmon nosir 21 yoshida xalifalik tahtiga chiqadi. U yoshligida juda ham ko'p iztiroblarini o'tkazgan. U o'z davri va o'z zamonasi uchun juda ham qudratli davlat tuzadi. Bu davlatda maorif, ta'lim va ilm marifat yuksaladi. Uning harbiy salohiyatiga yevropa hukmdorlari havas ila boqishar edi. Abdurrahmon Nosir hukmdorlik yillari Andalus tarixining oltin davri xisoblanadi. Andalusda xalifalik maqomida 8ta hukmdor hukmronlik qilgan edi. Ular;

1. Abdurrahmon Nosir 912-961-yillar

2. Al-Hakam 961-976-yillar

3. Hishom II 976-1000, 1010-1013-yillar

4. Muhammad II 1009-yil

5. Sulaymon 1009, 1013-1016-yillar

6. Abdurrahmon IV 1018-yil

7. Muhammad III 1024-1025-yillar

8. Hisham III 1027-1031-yillar<sup>2</sup>

Abdurrahmon Nosir vafotidan so'ng Andalus davlatida ichki nizolar kuchayib boradi. Bundan esa Ilberiya yarimorolining shimolidagi mayda xristian davlatlari foydalanib qoladi. Ularning talonchilik va tazviqlari kuchayib boradi. Ilberiya yarim orolining shimoliy qismlarida argoniya kastilioya leon kabi xristian davlatlari mavjud edi. Ularning musulmonlarga qarshi olib brogan kurashlari tarixda rekonkista nomini oladi. Bu urushga esa Rim papasi salib yurishi nomini beradi. Chunki ularning asosiy maqsadi bu hududlarni musulmonlardan tortib olish va mahalliy aholini xristianlashtirish edi. Shimoldagi ikki xristian davlati Kastiliya va leon qirolliklari birlashib musulmonlarga qarshi kursh boshlaydi. Bu kurash natijasida musulmonlar

---

<sup>1</sup> Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 17-bet.

<sup>2</sup> Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 13-bet.

qolida bo'lgan Ilberiya yarim orolining markaziy shaharlari boy beriladi. bir vaqtlar Vestgot qirolligining poytaxti bolgan Toledo shahri bu yurishlarda katta ahamiya kasb etgan. Chunki bu shahar strategic joylashuv o'rniga ko'ra judxa ham qulay bo'lgan. Xristian qo'shinlari XI asrning dastlabki yiollarida bu shaharni bosib olishga harakat boshlashgan edi. dastlabki urinishlar besamar yakunlanadi. Musulmonlar bu shaharni yirik chegara qal'a shaharga aylantirishadi. Lekin xristina qo'shinlarining XI asrning ikkinchidagi harbiy yurishlari havfli tus ola boshlaydi. Bu yurushlarga Kastiliya va Leon qirolu Alfonso VI boshchilik qiladi. Uzoq davom etgan urushlar natijasida musulmonlarning chegara shahri bo'lgan Toledo shahri xristian qo'shinlari tomonidan egallanadi. Bu voqea milodiy 1085-yilda sodir bolgan edi<sup>1</sup>. Toledo shahrining qo'ldan ketishi musulmonlar uchun judda ham qattiq zarba bo'ladi. Bu voqeadan so'ng musulmonlar orasida ixtilof paydo bo'ladi va Andaluf xafifaligi bir necha qismlarga bo'linib ketadi. Bu davrda hukmdorlik qilgan xalifalar shimoliy Afrikada davlat tuzgan Almovidlar sulolasiodan yordan so'raydi. Almovidlar yrodamida qurdoba xalifaligi saqlab qolingan. Lekin bu voqea uzoq dfavom etmagan. Almovidlar yordami tufayli saqlanib qolgan xalifalik o'z mustaqilligini yo'qotib u ularga qaram bo'lib qolishiga olib keladi. Toledo shahri qoldan ketgandan so'ng musulmonlar o'zini qayta tiklay olmaydi<sup>2</sup>. Va ular bir qancha mustaqil amirliklarga bo'linib ketishadi. Ispanlar esa yana kuch to'plab musulmonlarga qarshi yurishlarini davom ettirishadi. Ular musulmonlarga qarashli bo'lgan Alarkos sharini qamal qilishadi. 14 oylik qamaldan so'ng Alarkos shahri 1195-yilda ispanlar tomonidan egallanadi. Alarkos shahrining egallanishi musulmonlarga juda ham katta kulfat olib keladi. Shahardagi musulmon aholi ommaviy ravishda qatl qilinadi. Rekonkista siyosati natijasida Piriney yarimorolida yashagan musulmon aholi juda ham dahshatli qiynoqlarga solinadi.

Ispanlar shundan so'ng musulmonlarga qarshi kurashish uchun dengiz kuchlaridan foydalana boshlashadi. Ular musulmonlarga qarshli bolgan O'rta yer

---

<sup>1</sup> Jahon tarixi 1-qism. E. Qosimov, E. Nuriddinov, R. Mullajonova, F. Ismatullayev, N. Rasulova, Sh. Zokirov, A. Abduazimov, T. Ponomaryova, M. Nasritdinova. Toshkent 2013-yil. 410-bet.

<sup>2</sup> El Islam politico en el mediterraneo. Cidob Barsezona centre international affairs. 2013-yil. 44-bet

dengizining g'arbiy qismida joylashgan Menorka, Malyorka, Elvissa orollariga talonchilik va bosqinchilik yurishlarini kuchaytirgan edi. Ularning harbiy kemalari bu uyerning mahalliy aholisiga hujum qilar va talar edi. Ispanlar Menorka orolini 1232-1287-yillar oraligida ishg'ol etadilar. Ular faqatgina bu orol bilan cheklanib qolmasdan 1229-yilda malyorka 1235-yilda esa elvissa orolini ioshg'ol etishgan edi. Ispanlar quruqlik hududida ham rekonkista siyosatini davom ettirishgan buning natijasida 1212-yil Las Navas de Tolosa, 1236-yil Kordova, 1243-yilda Mursia, 1248-yil Sevilya, 1262-yilda esa kadis shahri ishgol etiladi. Musulmonlar qo'lida esa Gibraltar bo'g'ozining sharqiy qismi qoladi<sup>1</sup>. Ular bu yerda 1492-yilga qadar o'zlarining hukmdorligini saqlab qolgan. 1492-yilda ispanlar bu yuerda o'z hukmronligini o'rnatadi. Shunday qilib Ispaniya xududlarida mavjud bo'lgan musulmonlar davlati barham topadi.

### **Xulosa**

Musulmon halqlari uzoq yillar davomida jahon siyosatida muhim ro'l o'ynab kelgan. Ularning Al-Andalus davlati xam yevropa taraqqiyoti va tarixida judda ham katta o'rin egallaydi. Bu yerdagi ilm marifat markazlariga ta'li olish uchun yevropaning juda ham ko'plab hududlaridan talabalar kelgan. Bu yer orqali butun yevropaga musulmon madaniyati tarqaladi. Bu madaniyat hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. O'sha davrlarda bunyod etilgan memoriy yodgorliklar hozirgi kunda ham o'zining go'zalligi va mahobati bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

---

<sup>1</sup> Abd al-Rahman III . M. Fierro. One world publications. Oxford 2005-yil 15-bet.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Wikipedia//musulmon madaniyati.
2. Wikipedia// andalus tarixi
3. Jahon tarixi 1-qism. E. Qosimov, E. Nuriddinov, R. Mullajonova, F. Ismatullayev, N. Rasulova, Sh. Zokirov, A. Abduazimov, T. Ponomaryova, M. Nasritdinova. Toshkent 2013-yil. 466bet
4. Internet manbasi// you tobe// andalus history
5. El Islam politico en el mediterraneo. Cidob Barselona centre international affairs. 2013-yil. 376-bet.
6. Abd al-Rahman III . M. Fierro. One world publications. Oxford 2005-yil
7. Islom hazorasi. Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. Movarounnahr nashriyoti Toshkent. 2004-yil. 77bet
8. Andalusia Umayyad Route.2016-yil. 92bet.